XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2023 - yil 3 - may VI-63-54-8-110-K/23 Boysun tuman hokimligi

Boysun tumanidagi "Hunarmandlar" mahalla fuqarolar yig'ini nomini "Sariosiyo" nomiga o'zgartirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 48-sonli qarori, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 26-dekabrdagi 11-01/166-sonli yig'ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 3-fevraldagi 18-07/16-sonli yig'ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 8-fevraldagi 08-00956-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Boysun tumanidagi "Hunarmandlar" mahalla fuqarolar yig'ini nomini "Sariosiyo" nomiga o'zgartirish to'g'risidagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 26-dekabrdagi 11-01/166-sonli yig'ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 3-fevraldagi 18-07/16-sonli yig'ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 8-fevraldagi 08-00956-sonli xatlari ma'qullansin.

2. Tumandagi "Hunarmandlar" mahalla fuqarolar yig'ini nomini o'zgartirish bo'yicha takliflar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistikasi bo'limi (A.Saidov) davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (M.Jo'rayev), tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi

boshlig‘i (X.Nazarov), tuman qurilish bo‘limi (M.Mirzayev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomi o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish, yangi nomi yozilgan ko‘rsatgich, belgi, peshtlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatilishi bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (F.Murtazoyev) nomi o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi aholining fuqarolik pasport manzillariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Ushbu qaror “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B.Hayitov) hamda tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (X.Nazarov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi v.b **UZBEKOVA ZOHIDA BAXROMOVNA**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023 yil 3 maydagi
VI-63-54-8-110-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tumandagi “Hunarmandlar” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Boysun tumani	“Hunarmandlar”	1. **“**Sariosiyo” 2. “Xirmonjoy” 3. “Bog‘ot”	Takliflardan “**Sariosiyo”** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.